

SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika fani o'qituvchisi
Eshmuratova Dildora Normuratovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat xotin-qizlar sporti yo'nalishi talabasi
M Muratova
Feruza Alimovna*

Annotatsiya: Shaxs, individ va individual tushunchalari, shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi haqida, tarbiya metodlari, ma'naviy-axloqiy xulq-xulq-atvori haqida ma'lumot berilgan

Kalitso'zlar: Shaxs, individual, individual, shaxsning rivojlanishi, tarbiya metodi, ma'naviy-axloq, xulq-atvor.

Shaxs - muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudod sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi va ular xilma-xilma-xildir. Masalan: yashash tarzi, nasliy, ijtimoiy hayot tajribasi, turli xil munosabatlar va hokazolar kirishi mumkin.

Shaxs tushunchasi keng va ko'p ma'nolidir. Shaxs sifatida rivojlanishida mehnat qila olish qobiliyati mavjudligi, insonlar bilan muloqot madaniyatining normal darajada rivojlanishi namoyon bo'ladi.

Shaxs tushunchasi o'zaro individual va individual tushunchalari bilan bog'liq bo'ladi. Individ haqida to'xtaladigan bo'lsak, individual - bu kishining nasl-nasabi bilan bog'liq tushunchadir. Yangi tug'ilgan chaqaloq, katta yoshidagi odam, mutafakkir, aqli zaif ovsar, yuksak bilimli kishi, ruhiy sog'lom odam, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflarni ham individ deb hisoblash mumkin.

Shaxs deb jamiyatning a'zosi va jamiyatda yashovchi biron bir jismoniy yoki aqliy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, insonlar bilan normal muloqotga, munosabatga kirisha oladigan ongli individ deya bilishimiz mumkin.

Individ sifatida yangi tug'ilgan chaqaloq ham ijtimoiy muhit tarzida vaqt o'tishi bilan shaxsga aylanadi. Ya'ni uning yashash muhiti ijtimoiy tarzi bilan bog'liq. Yangi tug'ilgan chaqaloqni uning tuzilishi orqali inson zotiga mansubligini anglash mumkin. Gavda tuzilishi, tik yurishi uchun imkoniyatning mavjudligi, miyasining tuzilishi aaql-

hushining rivojlanishi uchun imkoniyat beradi, qo'llarining shakli tuzilish esa jismoniy mehnat qilishga mumkinligi ko'rsatadi.

Shaxsning yana bitta sifatlarini biri bu individuallikdir.

Individuallik - bu tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy yashash tarzi sharoitlarini chuqur bilgan holda bilish mumkin. Yana insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi.

Individuallik sifatida xarakter, temperament, psixik jarayonlar, munosabatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, dunyoqarashi, iqtidorli, har xil shakldagina reaktsiyalar, qobiliyatlarI kabilalar kiradi.

Individuallik bilan individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyati va psixikasining o'ziga xonligi uning takrorlanmasligini tushunishimiz mumkin.

Tarbiya metodi yunonchadan "metodos" so'zidan olingan bo'lib "yo'l" degan ma'noni bildiradi va tarbiya maqsadiga erishishning yo'li deb tushuniladi. Maktab amaliyotiga qo'llaniladigan metodlar - bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xalqiga ta'sir etish usullari hisoblanadi.

Metodlarni har doim takomillashtirish borsa bo'ladi. U har bir pedagogning o'z imkoniyati, tarbiya jarayoniga mos ravishda kelib chiqib o'zining shaxsiy qarashlari orqali umumiy metodikasini boyitib borishi mumkin.

Tarbiya metodlari takomillashtirish bilan tarbiya usullari yaratiladi. Tarbiya usullari - umumiy metodning bir qismi hisoblanadi.

Usullar - bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoqni tushuniladi.

Shaxsning rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun yashash tarzi, ijtimoiy muhiti va eng muhimi tarbiya hisoblanadi. Ana shular ta'siri ostida odam inson sifatida rivojlanadi va shaxsga aylanib boradi.

Bola shaxsining rivojlanishi bu uning falsafiy ta'limotiga asoslanadi. Inson tirik, o'g'li, biologik mavjudot hisoblanadi. Bolaning shaxsga bo'lib rivojlanishiga tabiat rivojlanishining qonuniyatlarini ham katta ahamiyatga ega.

Shaxsni rivojlanish vazifasini to'g'ri olib borish uchun uning xalqiga ta'sir etuvchi omillar va shaxs xususiyatlarini yaxshi bilishdan iborat bo'ladi.

Shaxsning ijtimoyillashuvi. Shaxs ijtimoiy muhit, yashash tarzi va munosabatlar jarayonlarida shakllanadi. Bola ta'lim jarayonida jamiyat bilan birga yashash, turli xil holat va hodisalar o'rgatiladi. O'quvchi bu jarayonda jamiyatga kirishadi va shu bilan birga o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu orqali bola bilim oladi, qadriyat haqida tushuncha paydo bo'ladi, axloqiy qoidalarni va ko'rsatmalar orttiradi ya'ni ijtimoiylashadi.

Ijtimoiylashuv uzoq vaqt talab qiladigan va murakkab jarayon hisoblanadi. Har bir bola jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishi, ideallik, axloqiy me'yoriy va qoidalalar tizimiga amal qilishi va bu qoidalarni qabul qilib,

o'rganib jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritishi kerak bo'ladi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televide niye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jaravon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqorida qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchisi tomonidan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalari, ijtimoiy muhit tasir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar. Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qaramaqarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika tarixi. Ma'ruza matni. Qo'llanma II qism. T. (tuz. S. Nishonova, B. Hasanova) TDPU 2002 y.
2. Pedagogika tarixidan Xrestomatiya (tuz. O. Hasanboyeva) T., O'qituvchi, 1973
3. E. G'oziyev "Psixologiya" - Toshkent 2008 y.
4. E. G'oziyev Umumiyy psixologiya Toshkent 2002 y. 1-2 kitob